



МАКТАБ BIOLOGIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA PEGAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Karimova N.A.

Nizomiy nomidagi TDPU p.f.f.d.,(PhD) dotsenti

Tayanch soʻzlar: kasbga yoʻnaltirish, taʼlim-tarbiya, pedagogik texnologiya, maktab taʼlimi, amaliyot, oʻqituvchi, oʻquvchi, metod.

Ключевые слова: профориентация, образование, педагогическая технология, школьное образование, практика, учитель, ученик, метод.

Key words: career guidance, education, pedagogical technology, school education, practice, teacher, student, method.

Резюме: Respublikamizda taʼlim samaradorligini oshirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Taʼlim tizimida oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirishning tashkiliy metodik asoslaridan foydalanilgan holda dars jarayonini tashkil etish natijasida oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish. Barcha fanlar kabi umumiy taʼlim tizimida oʻqitilayotgan biologiya fanini ham oʻqitishda pedagogik texnologiyalarga asoslanib dars oʻtilishi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda Biologiya oʻquv fanlarini oʻqitishda oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirishning tashkiliy metodik asoslariga doir dars ishlanmalari yaratildi va amaliyotga tadbiiq etilgan hamda tegishli tavsiyalar berilgan.

Резюме: Повышение эффективности образования в нашей республике является одним из наиболее актуальных вопросов современности. Ориентация студентов на профессию в результате организации учебного процесса с использованием организационно-методических основ ориентации студентов на профессию в системе образования. Как и все предметы, преподавание биологии в системе общего образования важно на основе педагогических технологий. В ходе этого процесса были созданы и применены на практике планы уроков, а также даны соответствующие рекомендации.

Summary: Improving the efficiency of education in our republic is one of the most urgent issues of today. Orientation of students to the profession as a result of organizing the lesson process using the organizational methodical bases of the orientation of students to the profession in the educational system. Like all subjects, it is important to teach biology taught in the general education system based on pedagogical technologies. In this process, lesson plans were created and applied to practice, and relevant recommendations were given.

Maktab taʼlimida kasbga yoʻnaltirish ishlarini yoʻlga qoʻyishda anʼanaviy amaliy mashgʻulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik oʻyin,

konferensiya, mustaqil fikrlar, mahalla, ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda o'tkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish zarur. Umumiy o'rta ta'lim davlat standartlariga asosan maktabda kasbga yo'naltirish bo'yicha mashg'ulotlar 8-9 sinflarda amalga oshiriladi. 8-sinfda kasblar haqida "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi" asosida axborot berish davom ettirilishi bilan bir qatorda o'quvchilarga kasb egallash yo'llari, kasb tanlashda tibbiy nomuvofiqliklar, kasbga yaroqlilik haqida tushunchlar berib boriladi.[1]

O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, kasb-hunarga mehrini uyg'otish yangi istedodlarni kashf etish. O'qituvchi va o'quvchilarni hamkorlikda ishlashini tashkil etish. Hozirgi kunda o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishda yangi pedagogik texnologiyalardan qo'llash yaxshi natija beradi. Masalan kichik guruhda ishlash, bumerang, tarozi, aqliy hujum, ven diagrammasi.

O'quvchining kasb-hunarga yo'naltirishdagi o'rni va faoliyati. O'qituvchini psixologik-pedagogik, umumkasbiy, rivojlanivu tayyorgarligi. Kasbga yo'naltirish bosqichlarining mazmununi, kuzatish, diagnostik suhbatlar. Birinchi bosqich 1-4 sinf, ikkinchi bosqich 5-9 sinf, uchinchi bosqich-akademik litsey, kasb hunar kolleji. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan o'quvchilarning kelgusidagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun yangi "Kasbga yo'naltirish tizimi" joriy etildi. Xususan, bunda: boshlang'ich sinflarga mehnat bozorida mavjud bo'lgan kasblar to'grisida tushunchalar berib boriladi. Yuqori sinflarda o'quvchilarning kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan psixologik-pedagogik diagnostika natijalari asosida kasbga yo'naltirish ishlari olib boriladi; o'quvchilarni bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo'lga qo'yiladi. Amaliy va ijtimoiy sheriklik tomonlari sifatida fan va ishlab chiqarishning ishtiroki bilan kasb -hunar ta'limi hamda kadrlar tayyorlashni rivojlantirish strategiyasining asosiy yo'nalishlari kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan [3].

Maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan. Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish. Jamiyatda o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish. O'qituvchilarning yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdagi mas'uliyati. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg'or maktab direktori va namunali o'qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va



pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish. Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yoʻnalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish, bola taʼlim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning oʻrnini oshirish. Oʻquvchilarning boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yoʻnaltirish tizimini takomillashtirish 2022/2023 oʻquv yilidan boshlab Toshkent davlat pedagogika universitetining kunduzgi taʼlim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik oʻquv mashgʻulotlari “4+2” tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy taʼlim muassasasida, 2 kuni umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida amaliyot oʻtash tartibida olib borilishi taʼminlandi. oʻquvchilarning kasb-hunarga layoqat yoʻnalishlari va qobiliyatlari darajasini tashxis etish ishlarini maktablarda muntazam ravishda olib borilishini;[2]

- har bir oʻquvchi haqida uning qiziqishlari, intilish va layoqatlari, erishgan yutuq va kamchiliklari, aqliy va umumiy rivojlanishi haqida koʻp yillik psixologik va pedagogik tashxis maʼlumotlari bankini tashkil etilishi, tartibga keltirilishi, maxsus daftar va dasturlar yordamida qayd etib borilishini;
- kasb-hunar klassifikatori va hududda mavjud boʻlgan oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi yoʻnalishlari boʻyicha axborot toʻplaydi va targʻibot qilishni tashkil etadi.

Maktablar va maktabdan tashqari taʼlim muassasalarida bolalar va yoshlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda. Kasb-hunarga yoʻnaltiruvchi tadbirlarning oʻtkazilishida metodik va amaliy yordam beradi, qilingan ishlar natijalarini tahlil qiladi va umumlashtiradi. Oʻz hududi doirasida mutaxassislariga boʻlgan ehtiyojini mehnat vazirligining boʻlinmasi orqali oladi, oʻrganadi va zarur boʻlgan kasb-hunarlar haqida maktablardagi kasb-hunarga yoʻnaltiruvchi mutaxassislar bilan maxsus kechalar, suhbat va koʻrik-tanlovlar, turli musobaqalar uyushtirishda yordam koʻrsatadi. Kasbga yoʻnaltirish maqsadi - shaxsning maʼlum bir kasbiy faoliyat yoʻnalishiga moyilligini aniqlashdir. Ushbu amaliyot har bir bola isteʼdodli va maʼlum bir sohada oʻz isteʼdodini koʻrsata oladi degan fikrga asoslanadi. Kasbga yoʻnaltirishning turli xil usullari mavjud - kelajakdagi kasbini tanlashda yosh avlod bilan, uning qiziqishlari va sevimli mashgʻulotlarini muhokama qiladigan mutaxassislar bilan suhbatlar, shuningdek, standartlashtirilgan usullar mavjud. Ularning natijalari kuchli va zaif tomonlarini tushunishga imkon beradi. Ulardan biri testni toʻldirishni oʻz ichiga olgan «Harrisonn assessment» usuli boʻlib, uning natijalari talabaning rivojlangan fazilatlarini, shuningdek oʻsish zonalarini ochib beradi. Ushbu amaliyot shuningdek, farzandingizga ushbu texnikaning natijalarini tushunishda



yordam beradigan va rivojlanish rejasini tuzishda yordam beradigan psixolog konsultant bilan suhbatni o'z ichiga oladi.[4]

Maktab ta'limida o'quvchilarni kasblarga y'onaltirish jarayoni ularning ta'limiy o'lining hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Bu ularga o'z martaba yo'llari haqida ongli qarorlar qabul qilishda yordam beradigan tushunchalar, bilim va tajribalar bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Ushbu yo'nalish o'quvchilarni muvaffaqiyatli va qoniqarli kasbiy hayotga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish 1-2 qismlari 2005-yil.
2. Alimxodjayeva S.N, Xaydarov F.N Psixologik tashxis metodikalari majmuasi, 2-qism O'quv qo'llanma. T.TDPU 2009.
3. Karimova N.A. Ergasheva G.S o'quvchilarning o'zlashtirish sifatini taminlashga psixologik va genetik yondashuv .Uzluksiz ta'lim. Ilmiy-uslubiy jurnal 6-son-2016 103-107 b.b.
4. G'ofurov A.T va boshqalar. Biologiyani o'qitishning umumiy metodikasi. (O'quv – metodik qo'llanma). TDPU.